

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/02.30.12.2019. Tar.45.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

BAZAROV BORIS BEKMURATOVICH

**SHIMOLIY BAQTRIYANING ELLINISTIK MADANIYATI
SHAKLLANISHIDA MAHALLIY AN'ANALARNING O'RNI**

**07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Bazarov Boris Bekmuratovich

Shimoliy Baxtriyaning ellinistik madaniyati shakllanishida mahalliy an‘analarning o‘rni.....5

Базаров Борис Бекмуратович

Роль местных традиций в формировании эллинистической культуры Северной Бактрии 24

Bazarov Boris Bekmuratovich

The role of local traditions in the formation of Hellenistic culture of Northern Bactria..... 44

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/02.30.12.2019. Tar.45.01. RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

BAZAROV BORIS BEKMURATOVICH

**SHIMOLIY BAQTRIYANING ELLINISTIK MADANIYATI
SHAKLLANISHIDA MAHALLIY AN'ANALARNING O'RNI**

**07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4. PhD/Tar782 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Milliy arxeologiya markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.archaeology.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raimqulov Abdisabur Azzamovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Ladislav Stancho
tarix fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01.raqamli Ilmiy kengashning 2024yil «26» iyul soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy. Tel.: (99871) 262-64-62, e-mail: uzarchae@academy.uz)

Dissertatsiya bilan Milliy arxeologiya markazi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy. Tel.: (99871) 262-64-62, e-mail: uzarchae@academy.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «8» iyul kuni tarqatildi.

(2024 yil «8» iyul dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



F.A.Maqsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d. (DSc), professor

D.X. Murodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n.

A. Anarbaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ellinizm madaniyati jahon xalqlari tarixida Qadimgi Sharq va G'arb mintaqalari xalqlarining madaniy va diniy qarashlari bilan bog'liq masalalarda o'zaro uyg'unlashuv jarayoniga turtki bo'lgan omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ellinizm davri madaniyati kirib borgan mintaqalarda shaharsozlikda, me'morchilikda, haykaltaroshlikda, moddiy madaniyatda, ilm-fanda ro'y bergan o'zgarishlarini o'rganish bilan birga, Qadimgi Sharq xalqlarining qadimgi mahalliy madaniyatini davomiyligini tadqiq etish ham bugungi kunda arxeologiya fanining muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan O'zbekistonda Fransiya, Rossiya, Germaniya va Chexiyaning yirik ilmiy markazlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan tadqiqot ishlari qadimgi Baqtriya hududida ellinizm davri madaniyatini o'ziga xos jihatlarini o'rganishni yangi pog'onaga olib chiqdi. Zamonaviy tadqiqot uslublariga tayanib olib borilayotgan qazishma ishlari ellinizm davrida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida kechgan siyosiy jarayonlar, aholining turmush tarzi, madaniyati va e'tiqodini yangicha qarashlar asosida o'rganish imkonini bermoqda. Mintaqaning ellinizm davriga oid yangi yodgorliklarini aniqlash, ularda qayd etilgan moddiy manbalarni o'rganish orqali Qadimgi Sharq madaniy merosini hozirgacha noma'lum bo'lgan yangi jabhalarini tadqiq etish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar davomida ochib o'rganilgan qadimiy inshootlarning, shu jumladan Mirzaliqo'rg'on va Poyonqo'rg'on qal'alarining me'morchilik tarxi, qurilish usullari, kulolchilik buyumlarining yasalish texnikasi va texnologiyasi, ularning turlari, badiiy san'at buyumlari namunalari va qurol-yarog'lar kabi moddiy manbalar Shimoliy Baqtriyaning ellinizm davri madaniyati tarixini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bu yodgorliklar ushbu madaniyatni shakllanishida muhim o'rin tutgan mahalliy an'analarning ko'plab jihatlarini ochib beradigan yodgorliklar sirasiga kiradi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi 2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 19-dekabrda 4068-son «Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, 2018-yil 16-yanvar 5181-son «Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni hamda 2019-yil 21-sentabrdagi 792-son «Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlarida¹ belgilangan ilmiy-tadqiqot va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/4751561>; 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бoshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/docs/3117025?ONDATE=18.02.2017%2000>; 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий-маданий мерос объекtlарини муhofаза қилиш соҳасидаги фаолиятини tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/docs/4113465>; 2018 йил 16 январь “Моддий маданий ва

innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni ma‘lum darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilish darajasi. Shimoliy Baqtriya moddiy madaniyatida mahalliy elementlarning saqlanib qolishi va davom etishi me‘morchilik bilan kulolchilikda kuzatiladi.

Ellinizm davrida mahalliy Baqtriya an‘analarining davom etishi va rivojlanishiga oid ilk tadqiqotlar ilmiy adabiyotlarda XX asrning 70-yillarda paydo bo‘la boshlaydi, ammo, bunday ilmiy ishlar juda kam uchraydi. G. A. Pugachenkova, P. Bernar va A. S. Sagdullaevlar me‘morchilikda mahalliy Baqtriya an‘analarining davom etishi haqida ma‘lumotlar beradi². Agar G. A. Pugachenkova umumiy holda antik davr arxitektura tarxlari tahlilini keltirsa, A. L. Lelekov O‘rta Osiyodagi mahalliy badiiy madaniyat markazlarini aniqlashga harakat qilgan³.

Sh. R. Pidaev, B. Lyonnet, N. D. Dvurechenskaya, A. Drujinina va R. Tixonovlar o‘z tadqiqotlarida kulolchilikda Baqtriya tiplari va idishlarga ishlov berish usullarini keltiradilar⁴.

A. S. Sagdullaev va Sh. B. Shaydullaev o‘z tadqiqotlarida ellinizm davrda ham davom etgan ilk temir davri me‘morchiligi va kulolchiligining ayrim mahalliy an‘analarini yoritib berishgan⁵.

Hozirgi vaqtda ellinizm davrida mahalliy Baqtriya an‘analarini saqlanishi va davom etishi alohida tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganish muhimdir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand

археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/3506332>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 февралдаги “Ахсикент археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ёдгорлик мажмуасини ташкил қилиш тўғрисида”ги // <https://lex.uz/uz/docs/3382160>; 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарорларида // <https://lex.uz/docs/4524476>.

² Пугаченкова Г. А. К архитектурной типологии в зодчестве Бактрии и Восточной Парфии//ВДИ. № 1. 1973. С. 121-131.; Bernard P. Les traditions orientales dans l’architecture gréco-bactrienne//Journal Asiatique. 1976. P. 265-266.; Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. Из-во. “Фан”. Ташкент. 1987. С. 43-48.

³ Лелеков Л. А. Локальные очаги эллинистической художественной культуры в Средней Азии//Античность и античные традиции в культуре и искусстве народов Советского Востока. Из-во. Наука. Москва. 1978. С. 226-233.

⁴ Пидаяев Ш. Р. Керамика греко-бактрийского времени с городища Старого Термеза // СА. № 1. 1991. С. 221.; Двуреченская Н. Д. К вопросу о раннеэллинистической керамике Бактрии (на основе закрытого комплекса террасного дома Кампыртепа)//ЗВОРАО. Контраст. Санкт-Петербург. 2015. Рис. 8.; Drujinina A. P. The structure of the urban site Takht-i Sangin and its vicinity//Bulletin of Miho museum. Vol. 16. 2016. Fig. 19, 12; 25, 9.; Лионне Б. Эллинистическая керамика из Героона Кинья в Ай-Ханум (Афганистан)// Эпоха империй. Восточный Иран от Ахеменидов до Сасанидов: история, археология, культура. Материалы международной научной конференции. Институт Востоковедения РАН. Москва. 2019.; Тихонов Р. В. Эллинистическая керамика Бактрии. Автореферат дисс. Санкт-Петербург. 2013.

⁵ Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. Из-во. “Фан”. Ташкент. 1987.; Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Из-во. Народного наследия им. Абдуллы Кодыри. Ташкент. 2000. С. 106-107.

arxeologiya institutining “Ilk metallar va qadimgi davr arxeologiyasi” bo‘limining “Markaziy Osiyoda ilk metallar va qadimgi davr moddiy va ma’naviy madaniyatlari kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari (er. avv. IV-III ming yilliklardan eramizning IV-V asrlarigacha)” tadqiqot mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ellinizm davri Shimoliy Baqtriya moddiy madaniyatida qadimiy Baqtriya an’alarini qurilish va kulolchilik ishi asosida ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Shimoliy Baqtriya me’morchiligida amalda qo‘llanilgan qurilish tarxlari va me’morchilik elementlarning mahalliy Baqtriya an’alariga xos ekanligini asoslash; ellinizm davri mudofaa inshootlari qurilishida qadimiy Baqtriya an’alariga xos bo‘lgan to‘rtburchak va aylana minoralar, to‘g‘ri burchakli shinaklar keng qo‘llanilganligini ko‘rsatish;

Mirzaliqo‘rg‘on qal’asi qadimgi Baqtriya an’alarida qurilgan harbiy nazorat punkti bo‘lganini dalillash;

ellinizm davri kulolchilik majmualarida bronza va ilk temir davrlaridan boshlab foydalanib kelingan idish turlari va ularga qo‘shimcha ishlov berish usullari saqlanib qolganini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Shimoliy Baqtriyaning ellinizm davri moddiy madaniyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Shimoliy Baqtriya ellinistik madaniyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan mahalliy an’alar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada arxeologiya manbalarni tizimlashtirish, tipologiya, statistika, qiyosiy tahlil qilish, tarixiylik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shimoliy Baqtriyaning ellinizm davri mahobatli va diniy me’morchiligida amalda qo‘llanilgan qurilish tarxlari (to‘g‘ri to‘rtburchak, aylana tarxlar) va arxitektura elementlari (inshootlarning asos va poydevorlari, to‘sinli va ravoqli shiftlar, ayvonlar, qavariq-doirasimon asosli va yog‘och ustunlar) bronza va ilk temir davrida shakllangan mahalliy Baqtriya an’alariga xos bo‘lgani isbotlangan;

ellinizm davri mudofaa me’morchiligida keng foydalanilgan to‘rtburchak va aylana minoralar, to‘g‘ri burchakli shinaklarning qadimgi Baqtriya an’alariga tegishli bo‘lgani asoslangan;

Shimoliy Baqtriyaning chegara hududida joylashgan Mirzaliqo‘rg‘on yodgorligining to‘g‘ri to‘rtburchak tarxi, mudofaa devori oldida maxsus xonalar – kazematlar hamda madaniy qatlamlarida ko‘plab uchraydigan o‘q-yoy uchlari va mustaxaralar kabi arxeologik topilmalar asosida yodgorlikning ellinizm davrida mahalliy Baqtriya an’alariga ko‘ra qurilgan harbiy-nazorat qal’asi vazifasini o‘taganligi dalillangan;

bronza va ilk temir davridan ishlatib kelingan kulolchilik idish tiplari (yarim sfera va silindr-konussimon qadahlar, devorlari tekis va disksimon kosa, chapya, tova, qozon, tog‘ora, xumlar) va idishlarga qo‘shimcha ishlov berish usullari (angoblash, silliqlash, och, kulrang va qora tusli kulolchilik idishlarini ishlab chiqarish, xo‘jalik idishlarida bezak sifatida barmoq izlarini tushirish va mato

yordamida idishlarni tayyorlash) mahalliy Baqtriya an'analari ellinizm davri kulolchilik komplekslarida saqlanishda davom etgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Shimoliy Baqtriya ellinistik madaniyatini shakllanishida qadimgi Baqtriya an'analarning o'rnini me'morchilik va kulolchilik ishi orqali ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning ishonchliligi Shimoliy Baqtriya yodgorliklaridan topib o'rganilgan kulolchilik materiallari va me'morchilik ishini o'rganish natijalari bilan tasdiqlanadi. Natijalar dala tadqiqoti jarayonida qo'lga kiritilgan arxeologiya materiallarini tabiiy fanlarni o'rganish usullari va arxeologiyada keng qo'llaniladigan nazariy va amaliy yondashuvlar bilan taqqoslab qiyosiy-tahliliy o'rganish, shuningdek, tarixiy va arxeologik ilmiy adabiyotlar, ilmiy xulosalar va tavsiyalarni qo'llash orqali belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyaga nazariy-metodik yondashuvlar Shimoliy Baqtriya moddiy madaniyatini keng va chuqur o'rganishga, qo'llanilayotgan usullarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "O'zbekiston tarixi"ning ellinizm davri bo'limlarini tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Shimoliy Baqtriyaning ellinistik madaniyati shakllanishida mahalliy an'analarning o'rnini" mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Shimoliy Baqtriyaning ellinizm davri mahobatli va diniy me'morchiligida amalda qo'llanilgan qurilish tarxlari (to'g'ri to'rtburchak, aylana tarxlar) va arxitektura elementlari (inshootlarning asos va poydevorlari, to'sinli va ravoqli shiftlar, ayvonlar, qavariq-doirasimon asosli va yog'och ustunlar) bronza va ilk temir davrida shakllangan mahalliy Baqtriya an'alariga xos bo'lgani to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida "Estetika ibtidosi" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat unitar korxonasi 2023-yil 25-maydagi 02-32-824-sonli ma'lumotnomasi);

ellinizm davri mudofaa me'morchiligida keng foydalanilgan to'rtburchak va aylana minoralar, to'g'ri burchakli shinaklarning qadimgi Baqtriya an'alariga tegishli bo'lgani to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi" telekanalida "Estetika ibtidosi" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat unitar korxonasi 2023-yil 25-maydagi 02-32-824-sonli ma'lumotnomasi);

Shimoliy Baqtriyaning chegara hududida joylashgan Mirzaliqo'rg'on yodgorligining to'g'ri to'rtburchak tarxi, mudofaa devori oldida maxsus xonalar – kazematlar hamda madaniy qatlamlarida ko'plab uchraydigan o'q-yoy uchlari va mustaxaralar kabi arxeologik topilmalar asosida yodgorlikning ellinizm davrida mahalliy Baqtriya an'alariga ko'ra qurilgan harbiy-nazorat qal'asi vazifasini o'taganligi haqidagi ma'lumotlar Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasining madaniy merosni targ'ib qilish va Termiz arxeologiya muzeyi faoliyatida keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Madaniy meros agentligining 2023-yil 07-maydagi 02-06/2691-sonli ma'lumotnomasi);

bronza va ilk temir davridan ishlatib kelingan kulolchilik idish tiplari (yarim sfera va silindr-konussimon qadahlar, devorlari tekis va disksimon kosa, chappa, tova, qozon, tog'ora, xumlar) va idishlarga qo'shimcha ishlov berish usullari (angoblash, silliqdash, och, kulrang va qora tusli kulolchilik idishlarini ishlab chiqarish, xo'jalik idishlarida bezak sifatida barmoq izlarini tushirish va mato yordamida idishlarni tayyorlash) mahalliy Baqtriya an'analari ellinizm davri kulolchilik komplekslarida saqlanishda davom etgani haqidagi ma'lumotlar Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasining madaniy merosni targ'ib qilish va Termiz arxeologiya muzeyi faoliyatida keng foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2023-yil 07-maydagi 02-06/2691-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta va xalqaro jurnallarda 2 maqola nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 153 betni tashkil qilib, unga 4 ta jadval va 60 ta illyustrativ materiallardan iborat albom ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Baqtriyaning ellinizm davri arxeologiya yodgorliklari" deb nomlanadi. Bu bobda Baqtriyaning ellinizm davri yodgorliklarini arxeologik o'rganish tarixi, sug'orish vohalari va Shimoliy Baqtriya arxeologik yodgorliklarining geografik joylashuvi, Mirzaliqo'rg'on va Payonqo'rg'on yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar keltirib o'tilgan.

Ushbu bob to'rt paragrafdan iborat. Birinchi paragraf "Baqtriyaning ellinizm davri arxeologiya yodgorliklarini o'rganish tarixi" deb nomlanadi. Baqtriyaning ellinizm davri madaniyatini arxeologik jihatidan o'rganilish tarixshunosligini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Baqtriyaning ellinizm madaniyatini arxeologik o'rganishning dastlabki bosqichi O'rta Osiyoda arxeologiyaning alohida fan sifatida shakllanishidan to Oyxonim yodgorligining ochilishigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab oladi. 1922 - yilda Shimoliy Afg'onistonda ish boshlagan Fransiya arxeologiya missiyasi ellinlashgan Baqtriyaning arxeologik o'rganishda muhim rol o'ynadi. 1924-1925 - yillarda A. Fushe tomonidan qadimiy Baqtra (Balx) shahri xarobalari ustida qazishma

ishlari olib borildi⁶, J. Aken va birozdan keyin R. Girshman boshchiligidagi Begramda fransuz arxeologiya missiyasi ish olib bordi⁷.

XX asrning 20-yillari oxirida Termiz va uning atrofini P. B. Denike⁸, M. E. Masson boshchiligidagi Termiz arxeologik-majmuaviy ekspeditsiyasi va M. I. Vyazmitina Ayritomda antik davri madaniyati me'moriy majmuasi⁹, O'zbekiston San'atshunoslik instituti ekspeditsiyasi G. A. Pugachenkova va B. A. Turg'unov Amudaryo kechuviga yaqin yerda Yunon-Baqtriya davri forposti qoldiqlarini aniqladilar¹⁰. Qadimgi Termiz qal'asida M. E. Masson¹¹, V. A. Kozlovskiy va E. G. Nekrasova¹², keyinchalik Sh. R. Pidaev¹³, Xalchayon, Sho'rtepa, Dalverzintepa yodgorliklarida L. I. Albaum, G. A. Pugachenkova va E. V. Rtveladze¹⁴ tomonidan arxeologik tadqiqotlar olib borilgan.

Tarkibida M. M. Dyakonov¹⁵, N. N. Zabelina¹⁶, E. E. Kuzmina, S. P. Pevzner¹⁷lar bo'lgan Tojikiston arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan Qalayi-Mir va Key-Kubodshoh, B. A. Litvinskiy Ko'hna-qal'a¹⁸, L. M. Belenitskiy va T. I. Zeymallar Boliday-tepa¹⁹ yodgorliklarida tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Ellinlashgan Baqtriyani arxeologik o'rganishning ikkinchi bosqichida arxeologik ishlar keng ko'lamda va keng hududlarda olib borildi.

XX asr ilmiy jamoatchilikni hayratga solgan voqealardan biri P. Bernard boshchiligidagi fransuz arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan asosida yunon xususiyatlarini o'zida aks etadigan qadimiy Oyxonim shahrining o'rganilishi bo'ldi²⁰.

⁶ Foucher A. La vieille route de l'Inde de Bactres à Taxila MDAFA, t. 1, Paris. 1942. P. 73-144.

⁷ Hackin J. Recherches archéologiques à Begram: chantier n 2 (1937), avec la collaboration de M. Hackin. //MDAFA. T. IX. Vol. 2. P. 1939.; Hackin J. Nouvelles recherches archéologiques à Begram (ancienne Kapici) (1939-1940) avec la collaboration de J. M. Hackin, J. Cari et P. Hamelin; études comparatives J. Auboyer, V. Elisseff, O. Rurz, Ph. Stem // MDAFA. T. XI. 2 vol. 1954.; Ghirshman R. Begram: Recherches historiques et archéologiques sur les Kouchans// MDAFA. T. XII. Le Caire. 1946. PP. 23-44; Гиршман Р. Раскопки Французской археологической делегации в Беграме (Афганистан)// КСИИМК. Вып. XIII. 1946. С. 13-14.

⁸ Денике П. Б. Экспедиция восточных культур в Среднюю Азию 1927 г.// "Культура Востока", Т. 2. М. 1928.; Он же, Термез (работы экспедиции Музея восточных культур в 1927 г.).НВ, № 22. 1928.

⁹ Массон М. Е. "Находка фрагмента скульптурного карниза" и "Скульптура Айртама". Искусство. 1935. № 2.; Вязьмитина М. И. Раскопки на городище Айртам // ТАКЭ. Вып. 1. 1945. С. 23-34.

¹⁰ Пугаченкова Г. А. К изучению памятников Северной Бактрии // ОНУ. № 8. 1968. с. 30.; Тургунов Б. А. К изучению Айртама // Из истории античной культуры Узбекистана. 1973. с. 55.

¹¹ Массон М. Е. Работы Термезской археологической комплексной экспедиции // ТАКЭ. Т. 2. Т. 1945. с. 32.

¹² Козловский В. А., Некрасова Е. Г. Стратиграфический шурф на цитадели Древнего Термеза // Бактрийские древности. 1976. Л. с. 30.

¹³ Пидаяев Ш. Керамика греко-бактрийского времени с городища Старого Термеза // СА. № 1. 1991. 210-224.

¹⁴ Альбаум Л. И. Городище Дальверзинтепа // ИМКУ. Вып. 7. 1966. С. 47-65.; Пугаченкова Г. А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Т. 1966. 285 С.; Пугаченкова Г. А. К изучению памятников Северной Бактрии // ОНУ. № 8. 1968. С. 30.; Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Дальверзинтепа— кушанский город на юге Узбекистана. Т. 1978.; Пугаченкова Г. А. Шортете // ИМКУ. № 21. 1987. С. 27-28.

¹⁵ Дьяконов М. М. Археологические работы в нижнем течении реки Кафирнигана (Кобадиян) (1950-1951 гг.)// МИА. 37. 1953. С. 253-293.

¹⁶ Забелина Н. Н. Раскопки на городище Калаи-Мир// МИА. 37. 1953. С. 294-301.

¹⁷ Кузьмина Е. Е., Певзнер С. П. Оборонительные сооружения городища Кей-Кобад шах// КСИИМК. 1956. № 64. С. 77-84.

¹⁸ Литвинский Б. А. Об археологических работах в Вахшской долине и в Исфаринском районе (в Ворухе) // КСИИМК. Вып. 64. 1956. С. 68-72.

¹⁹ Беленицкий Л. М. Отчет о работе Вахшского отряда в 1947 г. // МИА СССР, № 15. М—Л. 1950. С. 145.; Зеймаль Т. И. Разведывательные работы в Вахшской долине в 1959 г. // АРТ. № 7. 1959. С. 143-152.; Зеймаль Т. И. Древнеземледельческое поселение Болдай-тепе // МКТ. Вып. 2. 1971. С. 98.

²⁰ Schlumberger D. The excavations of Surkh Kotal and the problem of Hellenism in Bactria and India// Proceedings of the British Academy. Vol. XLVII. 1961. P. 77-95.; Garden J. C. Ceramiques de Bactres (MDAFA. T. XV). Paris. 1957.; Bernard P. Première campagne de fouilles d'Ai Khanum— CRAI. 1966.; Bernard P. Ai Khanum on the Oxus: a

1969-1976 - yillarda Afg'onistonning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida Sovet-Afg'on arxeologiya ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan bir qator yodgorliklar— Emshi-depe, Dilberjin, Jiga-tepa²¹ topib o'rganildi. B. A. Litvinskiy boshchiligida TAE Janubiy Tojikiston otryadi tomonidan Saksanoxur²², Kalai-Kafirnihon²³, Taxti-Sangin²⁴ yodgorliklarida (yodgorlik dastlab M. M. Dyakonov va A. M. Mandelshtam tomonidan tadqiq qilingan²⁵) A. Donish nomidagi Tarix instituti arxeologiya va numizmatika sektor xodimlari Tamoshotepa²⁶ yodgorligida faol tadqiqot ishlari olib borildi.

Bu bosqichda E. V. Rtveladze boshchiligida Kampirtepa qal'asi²⁷, shuningdek, Jondavlattepa²⁸, Oysaritepa²⁹, Talashkantepa II, Qulug'shohtepa³⁰, Darband devori³¹, Yalangtushtepa³² kabi yodgorliklarda, Talitagoratepa³³ yodgorligida Arxeologiya instituti otryadi tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi.

Hellenistic city in Central Asia— Albert Reckitt Archaeological Lecture. British Academy. 1967. L. P. 73-74.; Бернар П. Проблемы греческой колониальной истории и урбанизма эллинистического города Центральной Азии— Проблемы античной культуры. М. 1986. С. 250.

²¹ Кругликова И. Т. Разведки археологических памятников, проводившаяся сотрудниками Советско-Афганской археологической экспедиции (САЭ) на севере и северо-западе Афганистана в 1969-1976 гг. // ПИФК. XV. 2005.; Кругликова И. Т. Городище Емши-тепе в Северном Афганистане // КСИА. Вып. 136. 1973. С. 113.; Кошеленко Г. А., Гаиров В. А. "Круглые города" Центральной Азии// КСИА. Вып. 230. 2013. С. 196-209.; Кругликова И. Т. Дилберджин (раскопки 1970-1972 гг.). Часть 1. М. 1974.; Кругликова И. Т., Пугаченкова Г. А. Дилберджин (раскопки 1970-1973 гг.). Часть 2. М. 1977.; Долгоруков В. С. Оборонительные сооружения Дильберджина // Древняя Бактрия. Вып. 3. 1984. С. 85.; Пугаченкова Г. А. Раскопки южных городских ворот Дильберджина // Древняя Бактрия. Вып. 3. 1984. С. 105.; Пугаченкова Г. А. Джига-тепе (раскопки 1974 г.)// Древняя Бактрия. Вып. 2. М. 1979. с. 63-94.; Кругликова И. Т. Джагат-тепе // ПИФК. XIV. 2004. С. 548.; Пидаев Ш. Р. Керамика Джига-тепе (из раскопок 1976 г.)// Древняя Бактрия. Вып. 3. 1984. С. 112-124.

²² Литвинский Б. А., Мухитдинов Х. Античное городище Саксанохур (Юный Таджикистан)// СА. № 2. 1969. с. 169. 160-178.; Литвинский Б. А. Археологические работы в Таджикистане в 1962-1970 гг. (Некоторые итоги и проблемы)// АРТ. Вып. 10. 1973. С. 13.

²³ Литвинский Б. А. Калаи Кафирниган (раскопки 1974 г.)// АРТ. Вып. 14. 1979 г. с. 186.; Литвинский Б. А. Калаи Кафирниган (раскопки 1976 г.)// АРТ. Вып. 16. 1982 г. С. 128.; Седов А. В. Отчет о работах на Калаи Кафирниган в 1980 г. // АРТ. Вып. 20. 1987. С. 158, 164.

²⁴ Пичикян И. Р. Культура Бактрии (Ахеменидский и эллинистический периоды). М. 1991. с. 146-147.; Литвинский Б. А., Пичикян И. Р. Эллинистический храм Окса в Бактрии. Том I. М. 2000.; Drujinina A. Gussform mit griechischer Inschrift aus dem Oxos-Tempel // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan, Band 40, 2008:121-135.

²⁵ Дьяконов М. М. Археологические работы в нижнем течении реки Кафирнигана (Кобадиян) (1950-1951 гг.)// МИА. 37. 1953. С. 265.; Мандельштам А. М. Кочевники на пути в Индию // МИА. № 136. 1966. С. 146-148.

²⁶ Юсупов А. Х., Соловьев В. С. Новые археологические открытия в Яванской долине // АРТ. Вып. X. 1970. С. 78.; Абдуллаев А. Отчет о раскопках Тамошо-тепе в 1973 г.// АРТ. Вып. 13. 1973. С. 43.

²⁷ Ртвеладзе Э. В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. Т. 2002. С. 155.; Ртвеладзе Э. В., Болелов С. Б. Керамический комплекс эпохи эллинизма на Кампыртепа в Северной Бактрии// Материалы международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г. В. Шишкиной. 2000.; Болелов С. Б. Гончарная мастерская III—II веков до н. э. на Кампыртепа (К вопросу о керамическом производстве и организации ремесла в Северной Бактрии эпохи эллинизма) // МТЭ. Вып. 2. 2001.

²⁸ Пидаев Ш. Открытие нового памятника середины I тысячелетия до нашей эры // ОНУ. 1973. № 11. с. 77-83.; Ртвеладзе Э. В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. 1974. С. 74-85.

²⁹ Пидаев Ш. Р. Материалы к изучению древних памятников Северной Бактрии// Древняя Бактрия. Вып 1. 1974. с. 39.; Ртвеладзе Э. В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. 1974. С. 78.

³⁰ Ртвеладзе Э. В. Разведочное изучение Бактрийских памятников на юге Узбекистана // Древняя Бактрия. 1974. С. 74-85.

³¹ Ртвеладзе Э. В. Стена Дарбанда Бактрийского // ОНУ. № 12. 1986. С. 34.

³² Ртвеладзе Э. В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана //Бактрийские древности. 1976. с. 100.; Ртвеладзе Э. В. Археологические исследования в Бандыхане в 1974-1975 гг. //Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. 2007. С. 91-93.; Сверчков Л., Бороффа Н. Археологические работы в Бандыхане в 2006-2007 гг. // АИУз. Вып. 6. 2009. С. 230.

To'plangan ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlarning uchinchi bosqichida tizimlashtirildi va ushbu davrni o'rganish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Arxeologik tadqiqot ishlari tekislik hududlarida ham, tog'oldi va tog'li hududlarda ham keng ko'lamda olib boriladi. Bu davr O'zbekiston arxeologlarining Rossiya, Fransiya, Germaniya, Chexiya va boshqa davlatlar ilmiy tashkilotlari bilan keng xalqaro hamkorlik aloqalari rivojlangani bilan ajralib turadi. O'zbekiston-Germaniya ekspeditsiyasi Jondavlattepa³⁴ yodgorligida arxeologik tadqiqotlarni qayta boshlab yubordilar. Sh. Rahmonov va K. Rapen boshchiligidagi O'zbekiston-Fransiya So'g'd ekspeditsiyasi Darband devorida qazishma ishlarini olib bordi va devorning Yunon-Baqtriya davrida barpo etilganini isbotladi³⁵.

Uchinchi bosqichda Boysun tumanidagi qal'a xususiyatiga ega bo'lgan Qapchig'aytepa³⁶, Qizqo'rg'on³⁷, Sino qishlog'i yaqinidagi Darband devoriga o'xshash devor³⁸, Payonqo'rg'on³⁹, Qo'rg'onzol⁴⁰ va Uzundara⁴¹ yodgorliklari o'rganildi. Yunon-Baqtriya davriga oid materiallar tog' qishloqlari Machay va Qo'rg'oncha qishloqlari atrofidan⁴², G'ishttepa⁴³, Daxnajom, Munchaktepa (Boysun) va Pastaktepa (Sherobod)⁴⁴ kabi yodgorliklarda topib o'rganildi.

³³ Аннаев Т. Археологические работы на Талитагора (результаты работ 2013-2014 гг.)// АИУз. Вып. 10. 2016. С. 71-72.

³⁴ Хуфф Д., Пидавев Ш., Шайдуллаев Ш. Жондаваттепа. Археологик отряднинг 1993 йилда қилган тадқиқотлари ҳисоботи. Самарқанд. 1994.; Huff, D., Pidaev Ch., Shaydullaev Ch. Uzbek-German archaeological researches in the Surkhan Darya region. In *La Bactriane au Carrefour des routes et des civilisations de l'Asie Centrale. Actes du colloque de Termez 1997.* Paris. 2001.; Абдуллаев К., Станчо Л. Археологические работы на Джандавляттепа // АИУз. № 4. 2003. С. 21-22.

³⁵ Рахманов Ш., Рапэн К. Железные ворота// Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 1. 2003. С. 28.; Рапэн К., Бо Э., Гренет Ф., Рахманов Ш. Исследования в районе "Железных ворот": краткое состояние проблемы в 2005 г. // ИМКУ. № 35. 2006. С. 91.

³⁶ Сверчков Л. Археологические памятники Байсунского района// Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 2. 2005. с. 38.; Stančo L., Shaydullaev Sh., Khamidov O., Augustinova A., Damašek L., Bek T., Kmošek M. In the footsteps of Euthydemus. Preliminary report for archaeological survey in the Baysun district (South Uzbekistan), Season 2018.// *Studia Hercynia XXIII/1.* P. 143. fig. 3.

³⁷ Сверчков Л. Курганзол — крепость Александра на юге Узбекистана. Т. SMI-ASIA. 2013. С. 145.; Ртвеладзе Э. В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. Т. 2002. С. 139.

³⁸ Пугаченкова Г. А. К исторической топографии Чаганиана // Труды ТашГУ. Вып. 200. 1963. С. 51.

³⁹ Абдуллаев К. Раскопки на Паянкургане в Байсунском районе (Северная Бактрия)// АИУз. № 1. 2000. С. 25.; Бобохаджаев А., Аннаев Т., Рахманов Ш. Некоторые итоги изучения древних и средневековых памятников предгорной и горной полосы кугитанг-Байсунтау//ИМКУ. Вып. 23. 1990.; Абдуллаев К. Раскопки на Паенкургане в Байсунском районе (Северная Бактрия)// АИУз. № 2. 2001. С. 18.; Аннаев Т. Основные этапы освоения Байсуна и его округа //Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 1. 2003. С. 9.

⁴⁰ Ртвеладзе Э. В. История государственности Узбекистана. Ташкент. "Узбекистан". 2009. С. 149.

⁴¹ Ртвеладзе Э. В. Фортификационные сооружения на северных границах Кушанского государства // Маскан. № 5-6. 1992. С. 4-5.; Ртвеладзе Э. В., Двуреченская Н. Д. Узундара эллинистическая крепость Бактрии (материалы рекогносцировочно-разведывательных работ 2013 г.)//АИ. № 11. 2015. С. 45.

⁴² Сверчков Л. Археология Байсуна—2004 г.// Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. 2007. с. 9.; Stančo L., Shaydullaev Sh., Khamidov O., Augustinova A., Damašek L., Bek T., Kmošek M. In the footsteps of Euthydemus. Preliminary report for archaeological survey in the Baysun district (South Uzbekistan), Season 2018.// *Studia Hercynia XXIII/1.* p. 145.

⁴³ Мокробородов В. В. Гишттепа в кишлаке Пашхурт. Предварительные итоги исследований 2004-2006 гг.// Трансоксиана-Мавераннахр. Т. 2007. с. 148-155.

⁴⁴ Stančo L., Shaydullaev Sh., Shaydullaev A., Augustinova A., Havlik J., Cejnaova P. Archaeological Survey in the eastern Kugitang Piedmonts (South Uzbekistan), Preliminary report for seasons 2016 and 2017. // *Studia Hercynia XXI/2.* 2017. p. 130.; Stančo L., Shaydullaev Sh., Khamidov O., Augustinova A., Damašek L., Bek T., Kmošek M. In the footsteps of Euthydemus. Preliminary report for archaeological survey in the Baysun district (South Uzbekistan), Season 2018.// *Studia Hercynia XXIII/1.*, 2018. 141-172.)

A. L. Abdullayev tomonidan Dushanbe qo'rg'oni tadqiq qilingan⁴⁵, A. Donish nomidagi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti arxeologik guruhi tomonidan tekshirilgan va Yunon-Baqtriya davri madaniy qatlamlari mavjud bo'lgan yodgorliklar qatoriga Qalay Charmgaroni Poyon (Ko'lob shahrining g'arbida)⁴⁶, Torbuloq (Cho'ltov)⁴⁷ va Gidjovak kabi arxeologiya yodgorliklarini kiritish mumkin. Ta'kidlash joizki, avvalgi tadqiqotlar hozirda Baqtriya ellinistik madaniyatini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "Shimoliy Baqtriyaning ellinizm davri arxeologik yodgorliklari va ularning geografik joylashuvi" da arxeologik yodgorliklarning geografik tarqalishi va Shimoliy Baqtriyaning sug'orish rayonlarida joylashganligi o'z aksini topgan. Paragrafda Ahamoniylar va ellinizm davrlari arxeologik yodgorliklarini joylashishi qiyosiy tahlili keltirilgan. Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning ellinizm davri yodgorliklarini arxeologik xaritasi tuzildi va unda 52 ta arxeologiya obyektining ro'yxati keltirilgan. Ellinizm davri Shimoliy-G'arbiy Baqtriyaning siyosiy xartasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyidagi holat kuzatiladi⁴⁸: birinchidan, vohaning janubiy va janubi-g'arbiy qismida Ahamoniylar davriga nisbatan aholi zichroq bo'lgan; ikkinchidan, tog'li, tog' oldi va chegara hududlari aholisi tomonidan o'zlashtirilishi ortdi; uchinchidan, Surxon vodiysining shimoli-sharqidagi aholi punktlari soni keskin kamayib ketdi. Yodgorliklar sug'orish maydonlari va Yunon-Baqtriya davlati uchun muhim ikkita mudofaa chizig'i bo'ylab joylashtirilgan. 9 ta sug'orish hududlari⁴⁹ Yuqorisurxon, Xalqajar, Urgul (Bandixon), O'rtasurxon, Angor, Sherobod, Ulanbuloq, Uzunsoy, Termiz, shuningdek, ikkita harbiy-mudofaa chizig'i Hisor-Boysun tog'li va Amudaryo ajratilgan.

Yunon-makedon qo'shinlarining bosqinchilik yurishlari Yuqori Surxon, Xalqajar va Bandixon sug'orish hududlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu yerda Yunon-Baqtriya davri aholi manzilgohlari keskin kamayib ketgan. Angor va Sherobod sug'orish rayonlarida yodgorliklar sonining ortib borganini kuzatish mumkin. Ellinizm davrida Uzunsoy kabi yangi hududlar o'zlashtirila boshladi. Sug'orish rayonlarda joylashgan yodgorliklar tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi davrida ikkita mudofaa chizig'ini tashkil etgan qal'a xususiyatiga ega bo'lgan arxeologiya obyektlari ham mavjud. Birinchi mudofaa chizig'i Janubiy Hisor tog' tizimidan

⁴⁵ Абдуллаев А. Л. Душанбинское городище в античный период (раскопки 2001-2003 годов) // АРТ. 30. 2004. С. 160.

⁴⁶ Довуди Д., Сафарзода Х., Курбанов Ш. Археологические работы в г. Кулябе в 2006 г. // АРТ. № 33. 2009. с. 288.

⁴⁷ Филимонова Т. Г., Линдстрем Г., Дружинина А. П. Каменные сосуды из селения Торбулак и открытие первого эллинистического поселения на территории Дангаринского района // АРТ. Вып.35. 2012. с. 229.

⁴⁸ Базаров Б. Б. Особенности системы размещения памятников Северо-Западной Бактрии эллинистического времени//Ўзбекистон ва Марказий Осиё Жаҳон цивилизацияси тизимида Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Миллий археология маркази Самарқанд археология институтининг 50 йиллиги ва академик А. Аскаронинг 85 йиллиги юбилейи муносабати билан ташкил этилган халқаро илмий онлайн конференция материаллари. Самарқанд. 2020. С. 53-54.; Базаров Б. Б. Археологические памятники Северо-Западной Бактрии эллинистического времени//Новые материалы и методы археологического исследования. Материалы VI конференции молодых ученых. Москва. 2021. С.103-105.

⁴⁹ Базаров Б. Б. Историко-географический обзор Сурхандарьи эллинистического времени (конец IV – конец II вв. до н. э.)// Актуальная археология 6. Материалы международной научной конференции молодых ученых. Санкт-Петербург. 2022. С. 186-189.

o'tgan bo'lsa, ikkinchisiga Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan qal'alar kirgan.

Bizga ma'lum bo'lgan yodgorliklar asosida ularning tipologiyasi ishlab chiqilgan. Buning uchun ularning maydoni, obyektning shakli va asos solingan vaqti muhim mezonlar sifatida olingan. Birinchi mezonga 10 gektardan ortiq; 3 dan 10 gektargacha; 1 dan 3 gektargacha va maydoni 1 gektargacha bo'lgan yodgorliklar kiradi. Yodgorliklarning tuzilishini hisobga olgan holda, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: kvadrat, to'rtburchak, ko'pburchak va yumaloq. Shuningdek, Shimoli-G'arbiy Baqtriyaning arxeologiya yodgorliklari quyidagi tiplarga bo'linadi: shahar, xo'jaliklar, tog' qishloqlari va qal'alar.

Ellinizm davri arxeologiya yodgorliklarining paydo bo'lish davriga ko'ra uch guruh ajratiladi – Ahamoniylar davrida vujudga kelgan yodgorliklar – Jondavlattepa, Xolchayon, Xayitobodtepa, Dabilqo'rg'on, G'ishtepa, Qiziltepa, Eski Termiz qo'rg'oni; faqat ellinizm davrda faoliyat ko'rsatgan yodgorliklar – G'ishtepa va er. avv. IV-II asrlarda barpo etilgan va keyingi davrlarda ham mavjud bo'lgan yodgorliklar. Ikki davr yodgorliklarining joylashish tizimini qiyosiy tahlil qilish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, Shimoliy-G'arbiy Baqtriyaning tog' va tog' oldi hududlarini o'zlashtirish jarayoni kuchayib boradi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “Mirzaliqo'rg'ondagi arxeologik tadqiqotlar” deb ataladi. Mirzaliqo'rg'on 2019-yilda O'zbekiston-Chexiya arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan topilgan. Yodgorlik Ko'hitang tog' dovonlari – Tangidara va Bog'lidaradan 13 km uzoqlikda, Xo'jaig'or qishlog'ida joylashgan. Yodgorlik koordinatalari: 37°54'38,53" N, 66°56'52,28" E. Obyekt shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon yo'nalgan bo'lib, ko'pburchakli ko'rinishga ega. Maydoni 0,5 gektarga etadi. Yodgorlik ilk bor 2019-yil sentyabr oyida O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. 2021- yil iyun va sentyabr oylarida ushbu yodgorlikda arxeologik qazishma ishlari olib borildi⁵⁰. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qal'a ellinizm, kushon va kushon-sosoniylar davrlarida, shuningdek, so'nggi o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan. Shimoliy (Qazishma-3) va sharqiy (Qazishma-2) qazishmalarda inshoot qoldiqlari topilgan. Qazishma - 2 yodgorlikning sharqiy tomonida joylashgan. Qazishmaning o'lchami 8x5,5 mni tashkil etadi. Ushbu qazilmada inshootning kesishgan devorlari topilgan. Ular 36x36x11 sm, 38-40x27-30x9-10 sm o'lchamdagi ikki qator xom g'isht holatida saqlangan. G'ishtlar asosan qizil tuproqdan tayyorlangan bo'lib, loy tarkibida mayda organik zarralar uchraydi. Qazishma-3 qal'aning eng baland, shimoliy qismida joylashgan bo'lib, o'lchami 10x10 metrni tashkil etadi. Qazishda ikkita xona topilgan. Devorlari 40-41x26-27x9-10 sm va 30x28-29x10-11 sm o'lchamdagi xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, so'nggi antik davri va ilk o'rta asrlarga xos. Mirzaliqo'rg'on qal'asi antik davri yodgorligi bo'lib, uning ahamiyati Yunon-Baqtriya va Kushon podsholiklari hukmronligi davrida nazorat va mudofaa vazifasini bajarganligi bilan belgilanadi. Mirzaliqo'rg'on sopollari orasida quyidagi tiplarni ajratish mumkin – kosalar, likopchalar, qadahlar, kraterlar, lekanlar, ko'zalar,

⁵⁰ Mirzaliqo'rg'onida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda shuningdek Karlova universiteti (Chexiya) tadqiqotchisi Yan Kisela ham ishtirok etdi. Uning tomonidan Qazishma № 3 ning g'arbiy tomonida qazishma amalga oshirildi. Ushbu qazishmaning natijalari tadqiqot ishimizda keltirilmagan.

mustaxaralar, xurmachalar, xumlar, qozonlar va boshqalar. Kulolchilik idishlari majmuasida ayniqsa antropomorf nalepga ega bo‘lgan idish (krater bo‘lishi mumkin) (?) alohida e‘tiborga molikdir. Sopol namunalari orasida kulrang muhrli idishlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Palmetta (gullar) idishning tag qismida ichki tomondan bezak sifatida qo‘llanilgan. Ushbu palmettalarining bir necha turlari mavjud. Mirzaliqo‘rg‘on topilmalari orasidan 2 ta sopol to‘quv dastgohi toshlari topilgan. Biri piramida, ikkinchisi disksimon ko‘rinishga ega. Shuningdek, urchuqbosh yoki sopol tugmalar, temir pichoq bo‘lagi va uch qirrali bronza kamon o‘qi uchi topilgan. Sopol namunalari va alohida topilmalar asosida Mirzaliqo‘rg‘on qal‘asini er. avv.III–II-asrlarning oxiri deb davrlashtirish mumkin.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafi “Poyonqo‘rg‘on yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar” deb nomlanadi. Poyonqo‘rg‘on yodgorligi Boysun shahridan 5 km janubi-g‘arbda, Temir darvozadan 12 km sharqda joylashgan. Yodgorlik koordinatalari: 38°09'328,62" N, 67°11'25,62" E. Xangaronsoy (Boysunsoy) ning o‘ng qirg‘og‘idan 500 m uzoqlikda, Janubiy Hisor tog‘ dovonlaridan Boysun tumani tog‘oldi hududlariga chiqish yo‘lida joylashgan. Yodgorlik janubi-g‘arbdan shimoli-sharqqa tomon yo‘nalgan bo‘lib, ko‘pburchak ko‘rinishiga ega, maydoni 0,7 gektarga yaqin. Balandligi 8-10 metrni tashkil etadi. Poyonqo‘rg‘on – Boysun tumanining adirlik qismida joylashgan. Er. avv. IV asr oxiri III asr boshlaridayoq Poyonqo‘rg‘on Salavkiylar davlati, keyinchalik Yunoniston-Baqtriya podsholigining tayanch qal‘asi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yodgorlikning ahamiyati uning nazorat va mudofaa funksiyasida bo‘lib: birinchidan, Poyonqo‘rg‘on qadimgi karvon yo‘llarining chorrahasida joylashgan bo‘lib, ular tog‘ daralaridan, ya‘ni “Temir darvoza” deb ataladigan hududdan chiqib, sharqqa tomon yo‘l olgan va Yuqori Surxon vohasiga, shuningdek, janubga Bandixon vohasigacha yo‘nalgan; ikkinchidan, yodgorlik Yunon-Baqtriya podsholigining shimoliy mudofaa chizig‘i tizimiga kirgan; uchinchidan, Poyonqo‘rg‘on Surxon vohasining ellinizm davri eng qadimiy yodgorliklaridan biridir.

Poyonqo‘rg‘on yodgorligida tadqiqot ishi muallifi Termiz arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimi T. J. Annaev rahbarligida Termiz davlat universiteti talabalari bilan birgalikda qazishma ishlarini olib bordi⁵¹. Qazishma ishlari yodgorlikning janubi-g‘arbiy qismida olib borildi. Qazishmaning umumiy maydoni 4,8x18 metrni tashkil etadi. Asosiy qazishma ishlari 8x4,8 m o‘lchamdagi Qazishma-№1da olib borildi. Qazishma natijasida 2,25 m chuqurlikka tushildi. Dastlabki qurilish davrida kvadrat shaklidagi xom g‘ishtdan barpo etilgan qurilish konstruksiya aniqlangan. G‘ishtning o‘lchami 30-31x9-10 sm. Bu qurilish konstruksiyasi minora bo‘lib, o‘lchami 3,5x4 metrni tashkil etadi. Minoraning balandligi bir g‘isht, eni uch g‘ishtdan iborat ikkita devori saqlanib qolgan. Devorning qalinligi 1-1,2 m. G‘ishtlar uch qator qilib qalangan. Bu qatlamda Yuechji - kushon davrining juda boy arxeologik materiallari – sopol namunalari taqdim etdi. Qatlamdan terrakota haykalchalari – kushon ma‘budasining boshi, ustiga qizil-jigarrang angob bilan angoblangan, yalang‘och sozanda haykalchasi va ot (haykalchanning boshi singan),

⁵¹ Аннаев Т. Дж., Базаров Б. Б., Аннаев Дж. Т. Археологические работы на Паенкургане// Археологические исследования в Узбекистане. Самарканд. 2023. в печати.

diametri 3,8 sm bo'lgan metall to'p, urchuqbosh va boshqalar topilgan. Ikkinchi qurilish davri Yunon-Baqtriya davriga oid bo'lib, undan mudofaa devori aniqlandi. Mudofaa devorining eni 3,2-3,5 m, uzunligi 2,8 m gacha bo'lib, Yunon-Baqtriya davrining so'nggi bosqichiga xos bo'lgan⁵² 36x9-10 sm o'lchamdagi kvadrat shakldagi xom g'ishtdan barpo etilgan. Ikkinchi qurilish davri sopol namunalari orasida kulolchilikning quyidagi turlari ajralib turadi: kosa, tovoq, qadah, krater, ko'za, mustaxara va xumlar. Bundan tashqari, alohida topilmalar – tugmalar, munchoq, ot haykalchasi (byust qismi), temir mix, pichoq bo'lagi va boshqalar topilgan. Qayd qilingan kulolchilik idishlari va g'isht formatiga asoslanib, Qazishma № 1 ni er. avv. II asrning birinchi yarmi bilan davrlashtirish mumkin.

“Turar-joy me'morchiligi” ellinizm davri qurilish ishida muhim ahamiyatga ega, sababi, turar-joylarning tuzilishi va uning ichki bezagi jamiyat hayoti va psixologiyasini o'zida aks etadi. Bundan tashqari, turar-joy qurish texnikasi o'zida mahalliy an'analarni saqlaydi. Turar-joy qurish texnikasi ma'lum bir xalqning o'ziga xosligini belgilovchi xususiyatdir⁵³. Er. avv. IV-II asrlar davri turar-joy binolari ikki guruhga ajratish mumkin— yer usti inshootlari va kapa, chaylalar. Qadimgi Baqtriya hududida ellinizm davri yerusti turar-joy binolari Oyxonim, Kampirtepa, Tomoshotepa va Taxti-Sangin kabi arxeologiya yodgorliklari qazib o'rganilgan. Turar-joylarning keyingi turi kappa va chaylalar hisoblanadi. Bunday turar-joylar Kampirtepa, Tomoshotepa, Boytudasht II, Hisor qal'asi, Taxti-Sangin, Dalvarzintepa kabi ellinizm davri yodgorliklarida qayd etilgan.

